

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHADIYEV ALISHER XUDOYNAZAROVICH

**MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economics

Shadiyev Alisher Xudoynazarovich

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini

takomillashtirish3

Шадиев Алишер Худойназарович

Совершенствование организационного механизма социально-

экономического развития региона33

Shadiyev Alisher Khudoynazarovich

Improving the Organizational Mechanism of the Region's Socio-Economic

Development67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHADIYEV ALISHER XUDOYNAZAROVICH

**MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5844 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziynet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yaymutov Dilshod Shoyimardonkulovich,**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ro'zmetov Baxtiyar**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nizomov Asliddin Badriddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024 1.72.05 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «30» dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz.)

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (803 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 224-67-00, faks.: (99 865) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «13» dekabr dagi № 35 raqamli reyestr bayonnomasi)



O.X.Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

N.S.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

B.N.Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda 2025-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli 60 foizida iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashishi kutilayotgan bo'lib, o'rtacha 3,8 foizni tashkil etishi, 2026–2027 yillarda esa biroz ko'tarilib 3,9 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra 2010-yillardagi o'rtacha ko'rsatkich bilan solishtirganda bir foizdan ko'proq past bo'lsada, kam daromadli mamlakatlar iqtisodiyoti 2025-yilda 5,3 foizga o'sishi kutilayotgan bo'lib, bu natija 2025-yil boshidagi prognozga nisbatan 0,4 foiz punktga pasaytirilgan. Tariflarning oshishi va mehnat bozorlarining keskinligi global inflyatsiyaga bosim o'tkazmoqda, ushbu ko'rsatkich 2025-yilda o'rtacha 2,9 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda va ko'rsatkich pandemiyagacha bo'lgan darajadan yuqoriroqdir¹. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirish orqali aholi turmush darajasini oshirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Jahonda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, urbanistik ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tuzilmasi va faoliyatini hamda shahar tugunlarining rekombinatsiyasi va konseptualashtirishiga asoslangan turli ekotizim o'zgarishlari ssenariylarining oqibatlari, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish orqali mintaqalarni yanada samarali rivojlantirish, klasterlar va hududiy tarmoqlar orqali iqtisodiy o'sish drayverlarini faollashtirish, mintaqaviy byudjetlar mustaqilligini oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilmani hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonida "aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, 2 million nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish, hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, "Yangi O'zbekiston" massivlari sonini 100 taga yetkazib, iqtisodiyot tarmoqlarining "drayver" yo'nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o'rta muddatlarga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish"² belgilab qo'yilgan. Ushbu natijalarga erishish jarayonida mintaqalarning mavjud potensialidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini belgilab olish asosida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, institutsional yondashuvlarda mutlaqo yangicha tizimni ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan choralar ko'rish, shu bilan bir qatorda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy

¹ <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/06/10/global-economic-prospects-june-2025-press-release>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish zaruratidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 12-sentabrdagi PF-32-son “ “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 28-yanvardagi PF-5644-son “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas‘uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrdagi PQ-467-son “Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 13-avgustdagi PQ-5223-son “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy tadqiqotlar sifati va rolini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-maydagi PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-yanvardagi PQ-4102-son “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4473-son “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-oktabrdagi PQ-4471-son “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy tadqiqotlar sifati va rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 215-son “2022-2026-yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 23-avgustdagi 536-son “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar xorijlik olimlardan R.S.Borrett, B.D.Fath, B.C.Patten, V.Christensen, D.Pauly, G.Halnes, B.C.Patten, D.C.North, P.Krugman, M.Storper, M.E.Porter, P.Cooke, K.Morgan, R.Florida, R.Camagni, R.Barro, X.Salai-Martin, J.D.Sachs, A.Pike, A.Rodriguez-Pose, J.Tomaney, D.Rodrik, M.Todaro, S.Smith, P.McCann³

³ Borrett, S.R., Fath, B.D., Patten, B.C., 2007. Functional integration of ecological networks through pathway proliferation. *Journal of Theoretical Biology* 245 (1), 98–111; Christensen, V., Pauly, D., 1993. Trophic models of aquatic ecosystems. *ICLARM Conference Proceedings* 26, 390; Fath, B.D., 2007. Community-level relations and

tomonidan olib borilgan bo‘lib, olimlar o‘z ilmiy izlanishlarida, institutsional iqtisodiy tahlil, fazoviy iqtisodiy modellashtirish, institutsional va tarmoq asosida tahlil, klaster tahlili, raqobat ustunligini o‘rganish, tarmoq, klaster va hamkorlik tahlili, fazoviy iqtisodiy model va matematik modellashtirish, ijtimoiy-statistik yondashuv, ko‘p omilli ko‘rsatkichlar asosida tahlil, neoklassik va endogen o‘rish modellariga asoslangan empirik tahlil, rivojlanayotgan davlatlar misolida statistik tahlil, siyosatlararo solishtirma tahlil singari tadqiqot metodologiyalaridan foydalanishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlaridan E.Y.Dotsenko, N.P.Ezdina, A.I.Tatarkin, O.V.Kuznetsova, A.N.Pilyasov, E.E.Leyzerevich, N.V.Zubarevich⁴ singari olimlarning tadqiqotlari ham mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tushunchasining mohiyatini ochishda salmoqli o‘rin tutadi.

O‘zbekistonlik olimlardan N.To‘xliyev, D.Sh.Yavmutov, O.X.Xamidov T.M.Axmedov, A.T.Yusupov, A.M.Sodiqov, A.A.Soliyev, A.A.Qayumov, F.Egamberdiyev, A.A.Abdusalyamov, A.B.Nizomov, B.Ro‘zmetov, A.A.Qulmatov, B.T.Salimov, Sh.X.Nazarov, T.M.Axmedov, A.M.Sodiqovlarning tadqiqotlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli masalalariga bag‘ishlangan⁵.

network mutualism. *Ecological Modelling* 208, 56–67; Fath, B.D., Hynes, G., 2007. Cyclic energy pathways in ecological food webs. *Ecological Modelling* 208, 17–24; Patten, B.C., 1991. Network ecology: Indirect determination of the life-environment relationship in ecosystems. In: Higashi, M., Burns, T.P. (Eds.), *Theoretical Studies of Ecosystems*. Cambridge University Press, Cambridge; North, D. C. (1990) *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*; Krugman, P. (1991) *Geography and Trade*; Storper, M. (1997) *The Regional World*; Porter, M. E. (1998) *Clusters and the New Economics of Competition*; Cooke, P. & Morgan, K. (1998) *The Associational Economy*; Fujita, M., Krugman, P. & Venables, A. J. (1999) *The Spatial Economy*; Florida, R. (2002) *The Rise of the Creative Class*; Camagni, R. (2002) *On the Concept of Territorial Competitiveness*; Barro, R. & Sala-i-Martin, X. (2004) *Economic Growth*; Sachs, J. D. (2005) *The End of Poverty*; Pike, A., Rodriguez-Pose, A. & Tomaney, J. (2006) *Local and Regional Development*; Rodrik, D. (2007) *One Economics, Many Recipes*; Todaro, M. & Smith, S. (2011) *Economic Development*; McCann, P. (2013) *Modern Urban and Regional Economics*

⁴ Dotsenko E. Y. et al. Evolution of Ideas about the Role of the Environmental Factor in socio-Economic Development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 247. – С. 01068; А. И. Татаркин Инновационное развитие регионов России: теория, практика, управление; О. В. Кузнецова. Региональная политика России: 20 лет реформ и новые возможности; А. Н. Пилиасов. Новая роль государства в развитии хозяйства регионов Севера -2005; Н. В. Зубаревич. Социальное развитие российских регионов: проблемы и тенденции. 2005 г; Е. Е. Лейзерович. Теория и практика экономического районирования. 1994 г.

⁵To‘xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – T.: O‘zME. 2020, - 204 b.; Yavmutov D.Sh., “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida mintqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2025. 72-bet. Axmedov T.M. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. - Т.: Фан, 1995. - 231 с.; Юсупов А. Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана: диссертация доктора экономических наук: / Академия наук Республики Узбекистан. - Ташкент, 1991. - 298 с.; Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иктисод-молия, 2005. – 279 с.; Ahmedov E.A. va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2003. – 304 b.; Qayumov A.A., F.T.Egamberdiyev va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2004. – 116 b.; Rўzmetov B. Комплексное развитие региона в условиях углублении экономических реформ. Автореф. дис. д.э.н. –Т.: 1997. – 41 с.; Низамов А. Б. Экономический механизм восстановления эквивалентности обмена между сельскохозяйственными и промышленными отраслями (на примере Бухарской области Узбекистана). Автореферат на соис. уч. степ. к.э.н. – М.: 1993. – 17 с.; Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2(134). – В. 152-158.;Axmedov T.M. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексное развитие регионов Узбекистана. – Т.: Фан, 1992. с. 186; Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона. – Т.: Ўқитувчи – 1995. – с. 186; Назаров Ш.Х. Совершенствование методологических основ повышения конкурентоспособности регионов Узбекистана. Автореф. дисс. док. экон. наук. – Т.: ИПМИ, 2016. с. 36; Садыков А.М. Ўзбекистон минтақаларини ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва уни тартибга солиш механизмлари. Икт. фан. док. дисс. – Т.: ЎзМУ, 2006. 42 б.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirishga oid bir qator dolzarb muammolar, mintaqalarning ijtimoiy hamda iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, sohaga investitsiyalarni keng tarzda jalb qilish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, mintaqalarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq, ular tomonidan O'zbekiston mintaqalarini, jumladan Buxoro viloyatini yangicha institutsional yondashuvlar asosida rivojlantirish va samaradorlikni oshirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur jihatlar muammoning dolzarblik darajasining yanada oshishiga va ushbu mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qilish;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish zamonaviy yondashuvlarining ilmiy-nazariy tahlilini amalga oshirish;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalarini o'rganish;

iqtisodiyotning transformatsiyalanishi sharoitida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalari tahlil qilish;

Buxoro viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalar samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish;

Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Buxoro viloyati mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamentini joriy qilish istiqbollarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida qatnashadigan davlat va nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida samaradorlikni ta'minlovchi tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ekspert baholash, abstrakt-mantiqiy tahlil, monografik kuzatuv, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqalar “ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish”ini baholash uslubiyoti tizimli qiyosiy tahlil qilishning iqtisodiy o‘rinish, ijtimoiy farovonlik, ta’lim va inson kapitali, ijtimoiy tenglik va adolat, atrof-muhit va barqarorlik, ijtimoiy kapital va institutlar, innovatsion salohiyat omillariga asoslanuvchi “7 o‘lchovli vosita”sini kiritish orqali takomillashtirilgan;

hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasini aniqlashda ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ko‘rsatadigan ta’siri va hududlararo raqamli tafovutlar kompleks ko‘rsatkichlar tizimini baholashga asoslangan “Mintaqaviy raqamli transformatsiya indeksi” (MRTI) taklif etilgan;

hududiy rivojlanishni ta’minlashda dasturlarni ishlab chiqish, investitsion va innovatsion salohiyatni aniqlash va yo‘naltirish, sektorlararo mutanosiblikni shakllantirish, tahlil va monitoring asosida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimlarini yuritish, demografik axborot tizimi platformalari orqali raqamli nazorat o‘rnatish, mahalliy byudjetlar va ijtimoiy xizmatlar muvofiqligini ta’minlaydigan “Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti”ni joriy qilish taklifi asoslangan;

Buxoro viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholashda aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning o‘zgarishi ta’sirini baholash asosida 2030-yilga qadar yalpi hududiy mahsulot hajmining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ko‘rsatadigan ta’siri va hududlararo raqamli tafovutlarni baholovchi kompleks ko‘rsatkichlar tizimiga asoslangan “Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi” ishlab chiqilgan;

raqamli iqtisodiyot, sanoatni modernizatsiya qilish, qishloq xo‘jaligi transformatsiyasi, inson kapitalini rivojlantirish, hududiy barqarorlik, yashil iqtisodiyot, institutsional islohotlar singari strategik yo‘nalishlarga asoslangan “O‘zbekiston – 2040” ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha 2026–2040-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda strategik dasturlashtirishning 6 salbiy jihatga ko‘ra tasniflangan, zamonaviy yondashuvlarning 10 xil tizimi asoslab berilgan, rivojlanishning 8 ta asosiy modeli tizimlashtirilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, Buxoro viloyat hokimligi ma’lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Banki, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida samaradorlikni ta'minlovchi tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish yo'llari, vositalari va ularning amaliy natijadorligini ta'minlashda ifodalanib, hududlarni "Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi" orqali baholash "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti" faoliyat jarayonlarini to'g'ri tashkil etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyadan olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Buxoro viloyatidagi mintaqalarda yangi ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlarni joriy qilish orqali tashkiliy mexanizmlarning takomillashtirilishi natijasida mamlakat byudjeti yuklamalarini kamaytirish, xarajatlardagi salbiy tebranishlarini yumshatish, mahalliy aholi farovonligini yanada oshirish, hududlarning jozibadorligini kuchaytirish, Buxoro viloyati hududlarini kompleks tarzda rivojlantirish, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Risklarni boshqarish", "Sanoat iqtisodiyoti", "Strategik rejalashtirish", "Dinamik makroiqtisodiyot" kabi fanlarning o'quv dasturlari, darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar asosida:

mintaqalar "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish"ini baholash uslubiyoti tizimli qiyosiy tahlil qilishning iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik, ta'lim va inson kapitali, ijtimoiy tenglik va adolat, atrof-muhit va barqarorlik, ijtimoiy kapital va institutlar, innovatsion salohiyat omillariga asoslanuvchi "7 o'lchovli vosita"sini kiritish orqali takomillashtirish taklifidan Buxoro viloyati hokimining "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-avgustdagi 379-2-0-Q/24-son qarorining 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi 2025-yil 1-noyabrdagi 03-19-12443-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyatini aniqlash imkoniyati kengaygan;

hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasini aniqlashda ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ko'rsatadigan ta'siri va hududlararo raqamli tafovutlar kompleks ko'rsatkichlar tizimini baholashga asoslangan "Mintaqaviy raqamli transformatsiya indeksi" (MRTI) taklifidan Buxoro viloyati hokimining "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-avgustdagi 379-2-0-Q/24-son qarorining 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

hududiy rivojlanishni ta'minlashda dasturlarni ishlab chiqish, investitsion va innovatsion salohiyatni aniqlash va yo'naltirish, sektorlararo mutanosiblikni

shakllantirish, tahlil va monitoring asosida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimlarini yuritish, demografik axborot tizimi platformalari orqali raqamli nazorat o'rnatish, mahalliy byudjetlar va ijtimoiy xizmatlar muvofiqligini ta'minlaydigan "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti"ni joriy qilish taklifidan Buxoro viloyati hokimining "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-avgustdagi 379-2-0-Q/24-son qarorining 3-bandida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi 2025-yil 1-noyabrdagi 03-19-12443-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarining monitoringini amalga oshirish imkoni yaratilgan;

Buxoro viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholashda aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning o'zgarishi ta'sirini baholash asosida 2030-yilga qadar yalpi hududiy mahsulot hajmining prognoz parametrlaridan Buxoro viloyati hokimining "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-avgustdagi 379-2-0-Q/24-son qarorining 3-bandida belgilangan vazifalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi 2025-yil 1-noyabrdagi 03-19-12443-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Buxoro viloyati aholisi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 2,194 barobarga oshishi 2030-yilda viloyat aholisiga jami xizmatlar ko'rsatish hajmini 3,10 barobarga oshirish diapazonga teng maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarda 3 ta va xalqaro jurnalda 1 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy yondashuvlari va ilg‘or xorij tajribalari”** deb nomlangan birinchi bobida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish zamonaviy yondashuvlarining ilmiy-nazariy tahlili va mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilg‘or xorij tajribalari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator atamalar mavjud bo‘lib, iqtisodiy muhokama mavzularida eng ko‘p uchraydigan asosiy tushunchalar muallif fikriga ko‘ra, quyidagilardan iborat:

iqtisodiy o‘rish – moddiy sohadagi takror ishlab chiqarish, real ifodada ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmining ortish kabi jarayonlarning miqdoriy o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi;

iqtisodiy rivojlanish – bu hodisa iqtisodiy o‘rishga nisbatan murakkabroq jarayon bo‘lib, u miqdoriy hamda sifat jihatidan o‘zgarishlarni qamrab oladi, masalan, ishlab chiqarish tuzilmasining transformatsiyasi, resurslarni boshqarishning yangi usullarini joriy etish;

ijtimoiy rivojlanish – bu hodisa jamiyat tuzilmasida yuz berayotgan sifat jihatidan o‘zgarishlar bilan bog‘liq, mazkur o‘zgarishlar ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy ishonch kabi omillarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, ushbu jarayon shaxslarning yuqoriroq ijtimoiy maqomga erishish imkoniyatlarini ham o‘zgartiradi⁶;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – jamiyat (iqtisodiy) amaliyoti doirasida subyektlar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar natijasida yuzaga keluvchi miqdoriy, sifat jihatidan va tarkibiy o‘zgarishlar jarayonidir.

Adabiyotlarni o‘rganish natijasida ijtimoiy rivojlanishning asosiy xususiyatlarini aniqladik:

sifat jihatidan o‘zgaruvchanlik – ijtimoiy rivojlanish faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki jamiyat hayotidagi sifat jihatidan ko‘zga tashlanadigan o‘zgarishlar (inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, madaniy qadriyatlar) orqali belgilanadi; ijtimoiy adolat va tenglikka intilish – rivojlanish ijtimoiy adolat va barcha uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilib, kambag‘allik darajasini kamaytirish, gender tenglikni kuchaytirish hamda ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etish singari jihatlarni o‘z ichiga oladi; ijtimoiy institutlar barqarorligi – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, adliya, oilaviy institutlar kabi ijtimoiy institutlarning mustahkamligi va samaradorligi rivojlanishning muhim mezonlaridandir; fuqarolik jamiyatining rivojlanishi – insonlarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki – nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ommaviy tashabbuslarning ko‘payishi ijtimoiy yuksalishning muhim belgilaridir; ijtimoiy kapitalning ortishi – odamlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik darajasi oshib, ayniqsa, ijtimoiy integratsiya hamda ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi; hayot sifati yaxshilanishi – ijtimoiy rivojlanish hayot darajasining emas, hayot sifati – sog‘lom turmush tarzi, ma‘naviy resurslardan qoniqish, xavfsizlik kabi omillar orqali baholanadi.

⁶ Fritz, J. (2004). Socioeconomic developmental social work. In UNESCO Encyclopedia of Life Support Systems, A project on sustainable world development. Oxford: UNESCO–EOLSS.

Tadqiqotlar natijasida “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish” tushunchasini chuqur va tizimli tahlil qilish uchun “7 o‘lchovli vosita”sini taklif etamiz (1-jadval). Mazkur taklif metodologik yondashuv sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, turli mamlakatlar, hududlar yoki davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini taqqoslash va baholash imkonini beradi.

1-jadval

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 7 o‘lchov asosidagi qiyosiy tahlili⁷

T/r	O‘lchov yo‘nalishi	Tavsifi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Izoh va tahliliy imkoniyat
1	Iqtisodiy o‘sh	Iqtisodiyot hajmi va faoliyat ko‘laminig kengayishi	YaIM o‘sh sur‘ati, investitsiyalar, sanoat va xizmatlar ulushi	Milliy iqtisodiyotning miqdoriy o‘sh darajasi va barqarorligi baholanadi
2	Ijtimoiy farovonlik	Aholi hayot darajasi va ehtiyojlarining qondirilish holati	Real daromad, kambag‘allik darajasi, sog‘liqni saqlash, umr ko‘rish davomiyligi	Insonlarning farovonlik darajasi va ehtiyojlarga qondirilish imkoniyati o‘lchanadi
3	Ta‘lim va inson kapitali	Inson resurslarining rivojlanishi va mavjudligi	Savodxonlik, oliy ta‘lim qamrovi, kadrlar sifati	Ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni ta‘minlovchi kadrlar sifati va ta‘lim tizimi baholanadi
4	Ijtimoiy tenglik va adolat	Aholining turli guruhlari o‘rtasida imkoniyatlar va resurslar taqsimoti	Gender tengligi, boylik taqsimoti, ijtimoiy adolat darajasi	Barqaror rivojlanishda barcha qatlamlar ishtiroki va teng imkoniyatlar mavjudligi tahlil qilinadi
5	Atrof-muhit va barqarorlik	Ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish	Chiqindilar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi, ekologik siyosat	Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka mo‘ljallangan ekologik muvozanatni ko‘rsatadi
6	Ijtimoiy kapital va institutlar	Jamiyatda o‘zaro ishonch, hamkorlik va boshqaruv sifati	Ijtimoiy ishonch, fuqarolar faolligi, korrupsiya darajasi	Ijtimoiy tizimlar samaradorligi va ishtirok etuvchanlik darajasi tahlil qilinadi
7	Innovatsion salohiyat	Yangi texnologiyalar va ilmiy rivojlanish darajasi	Raqamli infratuzilma	Innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy modelga o‘tish salohiyati baholanadi

Zamonaviy rivojlanish nazariyalariga oid xalqaro adabiyotlarni o‘rganish natijasida, bizning muallif fikriga ko‘ra, **ijtimoiy rivojlanish** – bu shaxslarning mavjud salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, inson kapitalini yanada rivojlantirish, barcha uchun bir xilda, teng imkoniyatlar yaratib berish orqali aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga qaratilgan jarayon bo‘lib, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzilmalarning (institutlar, guruhlar, munosabatlar) miqdoriy hamda sifat jihatdan takomillashib boruvchi dinamik hodisasi hisoblanadi. Uning vositasida jamiyat hayotida barqarorlik, o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy

⁷ Muallif ishlanmasi

integratsiya darajalari ortib, jamiyat ichidagi ijtimoiy kapitalning ko'payishi va tizimli hamkorlik mexanizmlarining shakllanishi yuz beradi.

Zamonaviy va an'anaviy ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda muallif fikriga ko'ra, **iqtisodiy rivojlanish** – bu nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi, balki aholining barcha qatlamlari uchun bir xildagi, adolatli imkoniyatlar, resurslardan teng foydalanish hamda ijtimoiy himoya tizimlarining barqaror takomillashuvi orqali farovonlikka erishish jarayoni majmui, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiy faoliyat ulushining ortib borishi orqali mahsuldorlik, resurs samaradorligi va iqtisodiy moslashuvchanlikni oshiradigan, inson salohiyatiga tayanuvchi uzluksiz transformatsiya jarayonidir.

Yuqoridagilarga asoslanib, tizimli transformatsiya, innovatsion-inklyuziv yondashuv va inson salohiyatiga asoslangan barqaror rivojlanish modellarini umumlashtirgan yangi, kompleks hamda ilmiy asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'rifini ishlab chiqdik. Shunday qilib, bizning yondashuvimizga ko'ra, **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish** – bu inson salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, barcha uchun teng imkoniyatlar va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlab berish vositasida mavjud resurslardan oqilona, samarali va ekologik mas'uliyatli yondashuv asosida foydalanish, yuqori innovatsion va texnologik yechimlar orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish hamda ijtimoiy institutlar, shuningdek, tizimlararo uyg'unlikni shakllantirish yo'li bilan barqaror, tarkibiy va sifat jihatdan takomillashib boruvchi dinamik rivojlanish jarayonidir.

Ayrim olimlar fikricha, zamonaviy ilmiy yondashuvlarga muvofiq muayyan yaxlit hududni rivojlantirish jarayonining eng muhim xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: ko'p qirralilik, nomutanosiblik, nomuvofiqlik, davriylik va bosqichma-bosqichlik.

Tadqiqotlar natijasida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 10 xil zamonaviy yondashuvlar mavjudligini aniqlandi: 1)inklyuziv rivojlanish; 2)raqamli transformatsiya; 3)hududiy klasterlash; 4)agrologistika va qishloq hududlari rivojlanishi; 5)markaz-periferiya nazariyasi; 6)endogen rivojlanish; 7)innovatsion rivojlanish; 8)inson kapitali nazariyasi; 9)barqaror rivojlanish 10)institutsional rivojlanish.

Tadqiqotlarning navbatdagi bosqichida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar tahlili amalga oshirildi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Strategik dasturlashtirishning salbiy jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'p bosqichli hujjatlarni ishlab chiqishni, muvofiqlashtirishni va monitoringni talab etib, byurokratik tartiblarning ko'payishiga va qaror qabul qilish jarayonlari sekinlashishiga sabab bo'ladi.

Uzoq muddatli strategik rejalarda belgilangan maqsadlar ko'p hollarda keskin o'zgaruvchan bozor yoki siyosiy sharoitlarga moslasha olmaydi, natijada, strategiyalar real voqelikdan farq qilishi mumkin. Boshqa tomondan, strategik dasturlarni amalga oshirish ko'pincha katta miqdordagi moliyaviy resurslar va inson kapitalini talab qilib, cheklangan resurslarga ega bo'lgan hududlarda ushbu strategiyalar deyarli qog'ozda qolib ketish xavfi kuzatilishi mumkin. Shuningdek, resurslar taqsimoti yoki asosiy urg'u ko'proq iqtisodiy jihatdan rivojlangan

hududlarga qaratilsa, kam rivojlangan hududlar e'tibordan chetda qolib, mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik kuchayishi mumkin. Strategik dasturlarni amalga oshirishda kuchli institutlar, qat'iy mas'uliyat va nazorat mexanizmlari talab qilinib, agarda tizimlar zaif bo'lsa, strategiyalar samarasiz bo'lib qolishi mumkin.

2-jadval

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarning ustunliklari va kamchiliklari tahlili⁸

N ^o	Yondashuv nomi	Ustunliklari	Kamchiliklari
1	Barqaror rivojlanish	Ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar uyg'unligi Barqarorlik va uzoq muddatlilikni ta'minlaydi	Amalga oshirish xarajatlari yuqori Past daromadli mintaqalarda implementatsiyasi murakkab
2	Inklyuziv rivojlanish	Kambag'allikni qisqartiradi Ijtimoiy adolatni ta'minlaydi Nisbatan kam himoyalangan qatlam faolligini oshiradi	Tezda iqtisodiy natija bermaydi Resurs taqsimotida murakkabliklar keltirib chiqaradi
3	Raqamli transformatsiya	Samaradorlik va shaffoflikni oshiradi Innovatsion iqtisodiyotga asos bo'ladi	Raqamli nomutanosiblik (digital divide) muammosi Yangi texnologiyalarga qaramlik kuchayadi
4	Klasterlash va tarmoq iqtisodi	Mintaqaviy ixtisoslashuvni kuchaytiradi Kooperatsiya va sinergetik samarani ta'minlaydi	Klasterlar yaratish murakkabligi Infratuzilma va boshqaruv talabi yuqori
5	Agrologistika va qishloq hududlari rivojlanishi	Qishloq infratuzilmasini rivojlantiradi Mahalliy bandlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi	Qishloq hududlarida investitsiyalarning kamligi Raqobatbardoshlik past bo'lishi mumkin
6	Markaz-periferiya nazariyasi	Markazlashgan siyosatni mintaqaviy mohiyatini tushunishda foydali	Periferiyani(chekka hududlarni) faollashtirmaydi Asimmetrik rivojlanishni kuchaytirishi mumkin
7	Endogen rivojlanish	Mahalliy resurs va tashabbuslarni faollashtiradi Barqaror va o'ziga xos rivojlanishga xizmat qiladi	Rivojlanish sur'ati past bo'lishi mumkin Yangi texnologiyalardan yetarli foydalanilmasligi mumkin
8	Innovatsion rivojlanish	Innovatsiyalar orqali yuqori o'sish Raqobatbardosh iqtisodiyot yaratadi	Innovatsion markazlar asosan rivojlangan hududlarda joylashadi Moliyaviy manbalar va ilmiy salohiyat talab qiladi
9	Inson kapitali yondashuvi	Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish asosi Ta'lim va sog'liqni saqlashni ustuvorlashtiradi	Ta'siri uzoq muddatda seziladi Investitsiyalardan daromad olish sekin amalga oshadi

⁸ Muallif ishlanmasi

10	Institutsional rivojlanish	Raqamli boshqaruv va qonun ustuvorligini kuchaytiradi Investitsion jozibadorlikni oshiradi	Institutsional islohotlar siyosiy irodaga bog'liq bo'lib, natijalar sekin va murakkab tarzda olinadi
----	----------------------------	---	--

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi sharoitida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligining umumiy tahlili va prognoz parametrlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida iqtisodiyotning transformatsiyalanishi sharoitida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalari tahlili amalga oshirilgan, Buxoro viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalar samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilingan, Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz parametrlarini ishlab chiqilgan.

2020-2024-yillar mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi o‘zgarishlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd,so‘m)⁹

Hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	16125,1	17733,9	23144,1	28728,8	48567,9
Andijon viloyati	21106	25206,6	35379,5	44237	65030,7
Buxoro viloyati	28094,6	46719,5	57191,4	75325,1	119311,2
Jizzax viloyati	30152,6	21621,3	26046,5	35295,1	55182,9
Qashqadaryo viloyati	50653	36700,1	37662,7	47662,8	85650,5
Navoiy viloyati	40290,9	36444,1	43465,9	58451,7	83398,4
Namangan viloyati	28456,8	30348,7	35333,7	45945,5	109968,5
Samarqand viloyati	32972,9	37502,4	47807,3	65326,1	73201,1
Surxondaryo viloyati	19999,8	26566,8	27107,1	42527,8	45190,2
Sirdaryo viloyati	16064,9	19674,8	30620,9	36921,5	28081,7
Toshkent viloyati	46558,8	65474,6	73450	106696,2	166661,9
Farg‘ona viloyati	26457,6	28911,8	36462,4	47739,3	54704,1
Xorazm viloyati	12633,4	17899,7	20061	25055,1	32165,4
Toshkent shahri	107271,6	129590,6	129313,4	155996,5	204369,5
O‘zbekiston Respublikasi	478189,5	543536,8	625809,2	818109,2	1173134

5-jadvalga ko‘ra, 2020–2024-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,5 baravarga oshgan, bu natija mamlakat iqtisodiyotining investitsion faolligi yildan-yilga keskin ravishda ortib borayotganligini anglatib, ayniqsa 2023–2024-yillardagi o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati va iqtisodiy o‘rish potentsiali yuqori bo‘lgan hududlar Buxoro va Namangan viloyatlari ko‘rib chiqilayotgan davrda eng ko‘p miqdordagi investitsiyani jalb qilishga erishganligi aniqlandi.

Eng yuqori o‘rish sur‘atlari bo‘yicha ijobiy natijalarni qayd etgan hududlar qatorida Namangan viloyati +286%, Buxoro viloyati +324%, Andijon viloyati +208%, Toshkent viloyati +258% hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi +201% ko‘rsatkichlarga erishganligi ma’lum bo‘ldi.

⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida investitsiyalar hajmi nisbatan kichik va o'sish sur'atlari o'rtacha bo'lib qolmoqda. Bunga asosiy sabab muallif fikriga ko'ra, qulay infratuzilma, investorlar uchun yetarli darajadagi jozibadorlik va yirik loyihalar tashabbuskorligining yetishmovchiligi sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-12-son qarorida Buxoro viloyatida og'ir toifadagi tumanlarda kambag'allik va ishsizlikni keskin kamaytirish bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni tahlil qilindi (4-jadval).

4-jadval

Buxoro viloyatida og'ir toifadagi tumanlarda kambag'allik va ishsizlikni keskin kamaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar¹⁰

T/r	Hududlar	Aholi soni (ming kishi)	Mahalla soni	Aholini daromadli mehnat bilan band qilish (nafar)	shundan, banklar tomonidan:		Aholini kambag'allikdan chiqarish (nafar)	Kreditlar ajratish (mlrd so'm)	
					doimiy ishga joylash-tirish	Tadbirkorlikka jalb etish		kichik va o'rta biznesga	dasturlar doirasida
	Buxoro viloyati	632	184	71 295	18 472	28 867	26 451	1 787,7	346,3
1.	Vobkent tumani	151	44	17 560	5 067	6 310	5 480	437,4	75,1
2.	Jondor tumani	188	52	20 080	4 601	8 868	4 801	494,3	92,2
3.	Olot tumani	105	38	15 413	4 025	5 819	3 370	450,8	80,9
4.	Shofirkon tumani	188	50	18 242	4 779	7 870	12 800	405,2	98,1

Dashtlab, ish bilan band bo'lmagan aholi soniga nisbatan 2025-yilda mehnat bilan band qilinadigan aholi ulushi (%) hisoblab chiqdik. Ushbu ko'rsatkich har bir tumanda ishsiz aholi sonining qanchasi daromadli mehnat bilan band qilinishini ko'rsatadi: 1) Vobkent: $(17\,560 / 151\,000) \times 100 = 11,63\%$; 2) Jondor: $(20\,080 / 188\,000) \times 100 = 10,68\%$; 3) Olot: $(15\,413 / 105\,000) \times 100 = 14,68\%$; 4) Shofirkon: $(18\,242 / 188\,000) \times 100 = 9,70\%$.

Natijalarga ko'ra, Olot tumanida daromadli mehnat bilan qamrab olinadiganlar soni jami ishsizlarga nisbatan eng yuqori 14,7% natijani ko'rsatmoqda, bu esa boshqa tumanlar bilan solishtirganda faolroq mehnat resurslaridan foydalanilishini bildiradi.

Tadbirkorlikka jalb etish ulushi Vobkent tumanida 35,94%, Jondor 44,16%, Olot 37,75% hamda Shofirkonda 43,13% ni tashkil etadi. Kichik va o'rta biznes sohasiga jalb etish borasida esa Vobkent 31,22%, Jondor 23,91%, Olot 21,87% va Shofirkon tumanida 70,17% lik ko'rsatkichlar belgilab olingan. Shofirkonda kichik va o'rta biznesga jalb etish ulushi nihoyatda yuqori bo'lib, tumanda o'zini o'zi band qilish, oilaviy tadbirkorlik va mikrobiznes orqali mavjud muammolarga ijobiy yechim izlanmoqda.

Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2024-yil dekabr oyida 5 148,6 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga o'sgan (5-jadvalga qarang). Yanvar – dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qaroriga 14-ILOVA. <https://lex.uz/ru/docs/-7327821>

hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sishi iqtisodiy faoliyat turlarining savdo sohasida (118,4 foizga), bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 116,7 foizga), ta'lim sohasida (113,2 foizga) kuzatilgan. O'rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 12 220,5 ming so'm (viloyat bo'yicha o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta ko'p), axborot va aloqa sohasida 8 254,0 ming so'm (190,0 foizga), tashish va saqlashda 7 599,6 ming so'm (174,9 foizga), savdo sohasida 5 493,8 ming so'm (126,5 foizga) kuzatilgan¹¹.

5-jadval

Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so'm) (qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)¹²

Hudud	2023-yil (ming so'm)	2024-yil (ming so'm)	2023-yil (% viloyatga nisbatan)	2024-yil (% viloyatga nisbatan)
Buxoro viloyati (o'rtacha)	3 879,9	4 343,9	x	x
Buxoro sh.	4 534,1	5 232,2	116,9	120,4
Kogon sh.	5 903,3	6 453,9	152,2	148,6
Olot	3 253,8	3 440,7	83,9	79,2
Buxoro t.	3 108,9	3 494,6	80,1	80,4
Vobkent	2 651,3	3 169,1	68,3	73,0
G'ijduvon	2 907,8	3 204,9	74,9	73,8
Kogon t.	3 376,7	3 666,1	87,0	84,4
Qorako'l	2 734,0	3 159,8	70,5	72,7
Qorovulbozor	5 964,1	6 447,8	153,7	148,4
Peshku	2 893,8	3 341,3	74,6	76,9
Romitan	3 365,5	3 626,2	86,7	83,5
Jondor	2 869,3	3 092,8	74,0	71,2
Shofirkon	2 746,3	2 927,2	70,8	67,4

Sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 282,7 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,2 foizni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 172,7 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 110,9 foiz, qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 778,0 ming so'mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,8 foizni ko'rsatgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 518,5 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 12 220,5 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 116,7 foizga yetgan¹³.

Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi — ya'ni o'zgarishlar, islohotlar va rivojlanish jarayonlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ekonometrik modellar asosida prognozlash murakkab va muhim vazifalardan biri

¹¹ Buxoro viloyat axborotnomasi 2024-yil

¹² Buxoro viloyat axborotnomasi 2024-yil

¹³ Buxoro viloyat axborotnomasi 2024-yil

hisoblanadi. Bunda bir qancha endogen va ekzogen omillarni hisobga olish va qat'iy yondashuvlar talab etiladi.

6-jadval

Buxoro viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar asosida qurilgan chiziqli regressiya tenglamasi natijasi¹⁴

Dependent Variable: Y1				
Method: Least Squares				
Date: 08/02/25 Time: 16:32				
Sample: 2010 2024				
Included observations: 15				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
lnY2	0.745380	0.210310	3.544202	0.0040
lnX8	0.285909	0.130414	2.192316	0.0488
C	1.558864	1.196523	1.302829	0.0217
R-squared	0.996533	Mean dependent var		9.857351
Adjusted R-squared	0.995955	S.D. dependent var		0.889607
S.E. of regression	0.056579	Akaike info criterion		-2.729496
Sum squared resid	0.038414	Schwarz criterion		-2.587886
Log likelihood	23.47122	Hannan-Quinn criter.		-2.731005
F-statistic	1724.540	Durbin-Watson stat		1.736954
Prob(F-statistic)	0.000000			

Hosil qilingan modelni baholash mezonlari bo'yicha baholasak, quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin, odatda, determinatsiya koeffitsiyenti [0;1] kesmada qiymatlarni qabul qiladi. Koeffitsiyent qiymati qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, bog'liqlik shunchalik kuchli hisoblanadi. Mazkur holatda determinatsiya koeffitsiyentining 0,997 qiymatga teng bo'lishi, modelda mazkur iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida yetarli darajada kuchli bog'liqlik mavjudligini bildiradi.

F-mezonning haqiqiy qiymati $F_{hisob}=1724,54$ ga teng (P ehtimollik 0 teng). Agar haqiqiy qiymat jadvaldagi qiymatdan katta bo'lsa, u holda tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli yoki o'rganilayotgan jarayonga adekvat deyiladi.

Agar natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiya ijobiy bo'lmasa, u holda hisoblangan DW mezonining qiymat 2 dan kichik bo'ladi. Agar natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiya salbiy bo'lmasa, u holda hisoblangan DW mezonining qiymat 2 dan katta bo'ladi. Mazkur misolda hisoblangan DW mezonining qiymati 1,74 ga teng. Bu esa natijaviy omil qoldiqlaridan ijobiy avtokorrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi.

Buxoro viloyati Yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar asosida qurilgan chiziqli regressiya tenglamasining ko'rinishi quyidagicha:

$$Y_1 = e^{1,559} * Y_2^{0,745} * X_8^{0,286} + \varepsilon$$

$$\begin{matrix} t & 1,3028 & 3,5442 & 2,1923 \\ p & 0,0217 & 0,0040 & 0,0488 \end{matrix} \quad (1)$$

(1) modelni tahlil qiladigan bo'lsak, Buxoro viloyati aholisining jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi 1 foizga oshirilsa, Buxoro viloyati Yalpi hududiy

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mahsulot hajmi 0,745 foizga oshishiga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar ko'rsatish 1 foizga oshirilsa, Buxoro viloyati Yalpi hududiy mahsulot hajmi 0,286 foizga oshishiga olib kelar ekan.

Buxoro viloyati aholisining jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar asosida qurilgan chiziqli regressiya tenglamasi natijasi va baholash mezonlari hamda monandligi to'liq ko'rsatib berilgan. Chiziqli regressiya tenglamasini umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$Y_2 = -40512,4 + 48,319 * X_1 + 0,6347 * X_6 + 5,4877 * X_8 + \varepsilon$$

t	- 2,1093	2,1104	4,5026	2,5178	(2)
p	0,0586	0,0585	0,0009	0,0286	

(2) modelda Buxoro viloyati ish bilan band bo'lganlar soni (X_1) 1 foizga oshishi Buxoro viloyati aholisining jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 3,619 foizga oshishiga, Buxoro viloyati kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari soni (faoliyat ko'rsatayotgan) (X_6) 1 foizga oshirilsa, Buxoro viloyati aholisining jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 0,943 foizga oshishi, viloyat ta'lim sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmi 1 foizga oshirilsa, viloyati aholisining jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 0,219 foizga oshishi aniqlandi.

Buxoro viloyati aholisiga jami xizmatlar ko'rsatish hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar asosida qurilgan chiziqli regressiya tenglamasi natijasi va baholash mezonlari hamda monandligi to'liq ko'rsatib berilgan. Chiziqli regressiya tenglamasini model ko'rinishi quyidagicha:

$$Y_3 = e^{-69,215} * X_3^{0,301} * X_6^{0,080} * X_7^{9,898} + \varepsilon$$

t	- 2,5499	1,9693	1,3355	2,5936	(3)
p	0,0270	0,0353	0,0444	0,0250	

(3) modelni tahlil qiladigan bo'lsak, Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi (X_3) 1 foizga oshirilsa, viloyat jami xizmatlar ko'rsatish hajmi 0,301 foizga oshishi, viloyat kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari soni (faoliyat ko'rsatayotgan) (X_6) 1 foizga oshirilsa, viloyat jami xizmatlar ko'rsatish hajmi 0,080 foizga oshishi hamda viloyat aholisining umumiy soni (X_7) 1 foizga oshishi viloyat jami xizmatlar ko'rsatish hajmi 9,898 foizga oshishi aniqlandi.

7-jadvalda keltirilgan prognoz varianlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Buxoro viloyatining Yalpi hududiy mahsulot hajmi trend model asosida olingan prognoz varianti 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,129 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,01 barobarga oshishi kutilmoqda. Ko'p omilli ekonometrik model asosida olingan prognoz variantini tahlil qilsak, 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,160 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,088 barobarga oshishi kutilmoqda. Ikki holatni ham hisobga olgan holda ularni o'rtachasi hisobladik. Bunda 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,145 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,048 barobarga oshishi kutilmoqda.

Buxoro viloyati aholisi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining prognoz variantlarini tahlil qilsak, 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,137 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 1,913 barobarga oshishi kutilmoqda. Ko'p omilli ekonometrik model asosida

olingan prognoz variantini tahlil qilsak, 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,125 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,475 barobarga oshishi kutilmoqda. Ikki holatni ham hisobga olgan holda ularni o'rtachasi hisobladik. Bunda 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,131 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,194 barobarga oshishi kutilmoqda.

7-jadval

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlarning prognoz variantlari¹⁵

Yillar	Yalpi hududiy mahsulot hajmi mlrd.so'm (Y1) Trend model bo'yicha	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (ming so'm) (Y2) Trend model bo'yicha	Jami xizmatlar hajmi, (mlrd. So'm) (Y3) Trend model bo'yicha	Yalpi hududiy mahsulot hajmi mlrd.so'm (Y1) Ko'p omilli bo'yicha	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (ming so'm) (Y2) Ko'p omilli bo'yicha	Jami xizmatlar hajmi, (mlrd. so'm) (Y3) Ko'p omilli bo'yicha	Yalpi hududiy mahsulot hajmi mlrd.so'm (Y1) O'rtacha	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (ming so'm) (Y2) O'rtacha	Jami xizmatlar hajmi, (mlrd. so'm) (Y3) O'rtacha
2024 haqiqiy	71560,4	24858,1	34071,7	71560,4	24858,1	34071,7	71560,4	24858,1	34071,7
2025	80794,46	28254,88	44106,85	83019,68	27952,94	36118,77	81907,07	28103,91	38612,81
2026	91847,19	31680,74	56386,18	94649,17	32857,65	39943,12	93248,18	32269,2	48164,65
2027	103659,9	35324,28	70956,28	107098,3	38585,43	47942,45	105379,1	36954,86	59449,37
2028	116232,7	39185,5	88015,38	120371,9	45217,22	57291,16	118302,3	42201,36	72653,27
2029	129565,5	43264,4	107761,7	134474,1	52835,63	68186,1	132019,8	48050,01	87973,9
2030	143658,3	47560,98	130393,5	149408,9	61525,09	80849,02	146533,6	54543,04	105621,2
2025/2024	1,129039	1,136647	1,29453	1,160134	1,1245	1,06008	1,144587	1,130574	1,177306
2030/2024	2,007511	1,913299	3,827031	2,087871	2,475052	2,372908	2,047691	2,194176	3,09997

Buxoro viloyati aholisiga jami xizmatlar ko'rsatish hajmining prognoz variantlarini tahlil qilsak, 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,295 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 3,827 barobarga oshishi kutilmoqda. Ko'p omilli ekonometrik model asosida olingan prognoz variantini tahlil qilsak, 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,06 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,373 barobarga oshishi kutilmoqda. Ikki holatni ham hisobga olgan holda ularni o'rtachasi hisoblasak, bunda 2024-yil narxi hisobida, 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,177 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 3,10 barobarga oshishi kutilmoqda.

Dissertatsiyaning **“Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlangan, Buxoro viloyati mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirilgan, Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamentini joriy qilish istiqbollari belgilab olingan.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**2025-2040-yillarda raqamli texnologiyalarni sohalar kesimida qo‘llash
istiqbollari¹⁶**

№	Soha nomi	Raqamli texnologiya turlari	Kutilayotgan ijobiy ta'sirlar
1	Qishloq xo'jaligi	Smart qurilmalar tarmog'i (IoT), dronlar, aqlli sug'orish uskunlari	Hosildorlik oshadi, suv tejiladi
2	Sog'liqni saqlash	Telemeditsina, SI ga asoslangan diagnostika	Sifatli xizmat, uzoq hududlarga xizmatlar kirib boradi
3	Ta'lim	O'quv jarayonini boshqarish tizimi (LMS), Kengaytirilgan va Virtual reallik (AR/VR), sun'iy intellekt asosidagi platformalar	Masofaviy ta'lim, individual yondashuv
4	Transport va logistika	GPS, raqamli yo'nalishlar boshqaruvi, avtomatlashtirish	Yetkazib berish muddatlari qisqaradi, trafik kamayadi
5	Energetika	Aqlli energetik tarmoqlar, SI monitoring	Energiya samaradorligi, isrofgarchilik kamayadi
6	Ijtimoiy xizmatlar	Ijtimoiy raqamli platformalar	Kam ta'minlangan qatlamlarga tezkor yordam
7	Turizm	Virtual reallik (VR turlar), raqamli gid ilovalari	Xizmatlar sifati oshadi, tashriflar soni ko'payadi
8	Ekologiya	Ekosensorlar, katta ma'lumotlar bazasi (Big Data) tahlili	Atrof-muhit monitoringi kuchayadi
9	Bank-moliya	Moliyaviy texnologiyalar, blokcheyn, SI risk tahlili	Korrupsiya kamayadi, tranzaksiya tezlashadi
10	Savdo va chakana bozor	Elektron tijorat (E-commerce), QR-to'lov	Savdo hajmi ortadi, marketing jarayonlari soddalashadi
11	Davlat boshqaruvi	Elektron hukumat tizimini rivojlantirish, raqamli arxivlash, avtomatlashtirilgan xizmatlar	Shaffoflik, byurokratiya kamayadi
12	Ishlab chiqarish	Avtomatlashtirilgan liniyalar	Ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, sifat oshadi
13	Bandlik va mehnat bozori	Kasb o'rgatish tizimlari, onlayn ishga yollash platformalari	Ish topish osonlashadi, muvofiqlik oshadi
14	Madaniyat	Raqamli arxiv, virtual muzeylar	Madaniy merosni asrash va namoyish etishda innovatsiyalar
15	Qurilish	Qurilishda informatsion modellashtirish (Building Information Modeling), dron monitoring	Sifat nazorati kuchayadi, narxlar aniqroq prognozlanadi
16	Ichki ishlar va xavfsizlik	SI-kuzatuv tizimlari, raqamli monitoring	Jinoyatchilik darajasi kamayadi
17	Adliya	Elektron hujjatlar, sud robotizatsiyasi	Ish yuritish jarayoni tezlashadi, xatoliklar kamayadi
18	Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot	Katta ma'lumotlar bazasi (Big Data), ilmiy SI tahlil platformalari	Tezkor ilmiy natijalarga erishiladi, tadqiqotlar soni ortadi
19	OAV va boshqa axborot vositalari	Raqamli tahrir, sun'iy intellekt jurnalistikasi	Media iste'moli interaktiv va tezkor ko'rinish oladi
20	Aholi fikrini monitoring qilish	SI so'rovnomalari, chatbotlar	Davlat qarorlarida aholining fikri kengroq inobatga olinadi

Turli sohalar uchun maxsus, alohida-alohida transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqib, quyida mamlakatimizda 2025-2040-yillarda

¹⁶ Muallif ishlanmasi

raqamli texnologiyalarni sohalar kesimida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qildik, natijada 8-jadval shakllantirildi.

Bunda asosiy e'tibor quyidagi umumiy 20 ta sohaga qaratildi: qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va logistika, energetika, ijtimoiy xizmatlar, turizm, ekologiya, bank-moliya, savdo va chakana bozor, davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, bandlik va mehnat bozori, madaniyat, qurilish, ichki ishlar va xavfsizlik, adliya, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot, aholi fikrini monitoring qilish, OAV va boshqa axborot vositalari.

Tadqiqotlar natijasida "Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi" (MRTI) ni ishlab chiqildi (9-jadval). Muallif fikriga ko'ra, MRTI – bu hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ko'rsatadigan ta'siri va hududlararo raqamli tafovutlarni baholovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimidir.

9-jadval

Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi (MRTI)¹⁷

№	Blok nomi	Subindikatorlar	Baholash mezonlari (ko'rsatkichlar)	Ma'lumot manbasi	Og'irlik (%)	Kutilyotgan natija
1	Raqamli infratuzilma	- Internet qamrovi - 4G/5G ulanish - Raqamli texnologiyalar mavjudligi	Optik tolali qamrov (%), Mobil tarmoq sifati, Kompyuter / 1000 aholi	"O'zkomnazorat" UZINFOCOM, AKT vazirligi	25%	Tarmoqlarning raqamli tayyorlik darajasi
2	Raqamli iqtisodiyot	- Elektron savdo - Moliyaviy texnologiyalar - IT-startaplar	Onlayn to'lovlar hajmi, Elektron savdo ulushi, Texnopark va IT firmalar soni	MB, Soliq qo'mitasi, IT Park	20%	Raqamli iqtisodiy faollik
3	Raqamli boshqaruv	- Davlat xizmatlari - Ochiq ma'lumotlar - E-imzo faolligi	My.gov.uz xizmatlar soni, E-Hokimiyat mavjudligi, E-qarorlar ulushi	Yagona davlat platformalari	15%	Davlat xizmatlarining raqamlashganlik darajasi
4	Raqamli savodxonlik	- IT ta'lim - Aholining IT ko'nikmalari - Raqamli treninglar	Kompyuter bilan ishlay oladiganlar ulushi (%), IT muhandislar soni, Onlayn kurslar	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi, DTM, Ziyonet	15%	Aholining raqamli layoqati
5	Ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya	- Raqamli qishloq xo'jaligi - Raqamli sog'liqni saqlash - E-ta'lim	AgroTech joriy etilgan xo'jaliklar, E-shifoxonalar mavjudligi, Raqamli darsliklar ulushi	Qishloq xo'jaligi vazirligi, SSV, Maktabgacha va maktab ta'limi	15%	Sektorlararo raqamli transformatsiya
6	Innovatsion salohiyat va barqarorlik	- Raqamli startaplar - Ilmiy faoliyat - "Yashil" texnologiyalar	Innovatsion loyihalar soni, Grant asosidagi IT ishlanmalar, "Yashil IT" texnologiyalar	Innovatsiyalar vazirligi, O'zR FA, UNDP	10%	Barqaror raqamli g'oyalar va yangiliklar

¹⁷ Muallif ishlanmasi

MRTIni internet qamrovi, onlayn to'lovlar hajmi, My.gov.uz xizmatlaridan foydalanish, IT bilimga ega aholi hamda agrotexnologiyalar rivoji va innovatsion loyihalar soniga ko'ra Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona, Samarqand, Andijon, Namangan, Navoiy, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari kesimida baholandi.

Indeks shakllanishi bo'yicha asosiy mezonlar va ularning og'irligiga to'xtaladigan bo'lsak, internet qamrovi – 25%, onlayn to'lovlar hajmi (mlrd so'm) – 20%, My.gov.uz xizmatlaridan foydalanish – 15%, IT bilimga ega aholi – 15%, agrotexnologiyalar rivoji – 15% va innovatsion loyihalar soni – 10% miqdorida belgilab olindi. Baholash natijalari 10-jadvalda keltirilgan.

10-jadval

Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi (6 mezon)ga ko'ra hudud natijalari¹⁸

№	Hudud	Umumiy ball	Internet qamrovi (%)	Onlayn to'lovlar hajmi (mlrd so'm)	My.gov.uz xizmatlaridan foydalanish(ming)	IT bilimga ega aholi (%)	Agrotexnologiyalar rivoji (%)	Innovatsion loyihalar soni
1	Toshkent shahri	86.20	98	4500	300	65	40	150
2	Toshkent viloyati	76.20	95	3800	250	60	38	120
3	Farg'ona	68.70	90	3000	230	55	35	100
4	Samarqand	67.90	89	2900	220	54	33	95
5	Andijon	63.60	87	2700	210	53	32	90
6	Namangan	62.90	86	2600	200	52	30	88
7	Navoiy	60.10	85	2500	190	51	29	85
8	Buxoro	57.10	84	2400	185	50	28	80
9	Xorazm	55.45	83	2300	180	49	27	78
10	Surxondaryo	52.55	82	2200	170	48	26	75
11	Qoraqalpog'iston	52.25	80	2100	160	47	25	70
12	Qashqadaryo	50.75	78	2000	150	46	23	65
13	Sirdaryo	50.10	77	1900	140	45	22	60
14	Jizzax	47.90	75	1800	130	44	20	50

Shunday qilib, O'zbekiston hududlari bo'yicha raqamli transformatsiyaning hozirgi holatini ko'rsatib beruvchi Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi (MRTI) natijalariga ko'ra (11-jadval), Toshkent shahri umumiy 86.20 ball bilan juda yuqori darajadagi raqamli rivojlanish ko'rsatkichlariga ega hudud ekanligini aniqladik. Bunday ijobiy natijaga internet infratuzilmasining keng qamrovi, elektron to'lovlar tizimining rivojlanganligi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va undan foydalanish hamda aholining IT savodxonligi darajasining yuqoriligini sabab sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent viloyati 76.20 ball bilan yuqori raqamli rivojlanish ko'rsatkichiga ega hudud sifatida baholandi. Aytib o'tish lozimki, viloyatda IT-startaplar sonining ortib borayotgani, texnoparklar faoliyatining faollashgani va moliyaviy texnologiyalar yechimlarining kengaygani natijaga asos bo'lmoqda.

¹⁸ Muallif ishlanmasi

Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi
yakuniy baholash natijalari¹⁹


№	Hudud	Umumiy ball	Baholanish natijasi
1	Toshkent shahri	86.20	Juda yuqori raqamli rivojlanish
2	Toshkent viloyati	76.20	Yuqori raqamli rivojlanish
3	Fargʻona viloyati	68.70	Oʻrtacha yuqori
4	Samarqand viloyati	67.90	Oʻrtacha yuqori
5	Andijon viloyati	63.60	Oʻrtacha
6	Namangan viloyati	62.90	Oʻrtacha
7	Navoiy viloyati	60.10	Oʻrtacha
8	Buxoro viloyati	57.10	Oʻrtacha past
9	Xorazm viloyati	55.45	Oʻrtacha past
10	Surxondaryo viloyati	52.55	Past daraja
11	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	52.25	Past daraja
12	Qashqadaryo viloyati	50.75	Past daraja
13	Sirdaryo viloyati	50.10	Past daraja
14	Jizzax viloyati	47.90	Juda past raqamli rivojlanish

Oʻrtacha yuqori raqamli rivojlanish darajasida Fargʻona (68.70) va Samarqand (67.90) viloyatlari qayd etilib, mazkur hududlar aholisi sonining koʻpligi va iqtisodiy jihatdan faolliklari sabab raqamli infratuzilma va xizmatlar rivojlanib bormoqda. Shunday boʻlsada, ushbu hududlarda innovatsion salohiyat va “yashil” texnologiyalar boʻyicha hali resurslar yetarli darajada emas nazarimizda. Oʻrtacha darajadagi raqamli rivojlanishga ega hududlar sifatida Andijon (63.60), Namangan (62.90) va Navoiy (60.10) viloyatlari ajralib turadi. Bu hududlarda raqamli boshqaruv va iqtisodiyot sektorlari oʻsayotgan boʻlsada, sektorlararo integratsiya masalan, masofaviy taʼlim va raqamli sogʻliqni saqlash sohalarida rivojlanish sust kechmoqda. Aynan mana shu sabablarga koʻra raqamli imkoniyatlardan toʻliq foydalanish imkoni cheklangan. Oʻrtacha past darajali viloyatlar sifatida Buxoro (57.10) va Xorazm (55.45) viloyatlari qayd etilib, asosan raqamli startaplar va IT resurslar yetishmasligi, ilm-fan infratuzilmasining nisbatan rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Buning natijasida esa raqamli transformatsiya jarayonida muhim boʻgʻinlarning toʻlaqonli faoliyat yuritmasligi omili yuzaga kelmoqda. Surxondaryo (52.55), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (52.25), Qashqadaryo (50.75) va Sirdaryo (50.10) viloyatlari Past raqamli rivojlanish koʻrsatkichi bilan baholandi. Muallif fikriga koʻra, ushbu hududlarda raqamli infratuzilmaning zaifligi, IT kadrlari taqchilligi, onlayn xizmatlar va elektron boshqaruvning yetarli joriy etilmaganligi sabab raqamli transformatsiya jarayoni sust kechmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Jizzax viloyatida (47.90 ball) qayd etildi. Hududda nafaqat raqamli infratuzilma, balki raqamli savodxonlik, texnologik innovatsiyalarning jiddiy darajada yetishmovchiligi kuzatilayotgan boʻlib, bu holat hudud uchun alohida davlat raqamli modernizatsiya dasturini ishlab chiqish zaruratini koʻrsatib turibdi.

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Tadqiqotlar natijasida Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy muammolaridan eng asosiylari aniqlashtirib olindi (2-rasm).



2-rasm. Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy muammolari²⁰

Shunday qilib, Buxoro viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tashkiliy mexanizmlardagi asosiy zaifliklardan biri kompleks yondashuvning yetishmasligi, past darajadagi tashabbuskorlik va zamonaviy boshqaruv vositalarining keng tatbiq etilmaganligida bo'lib, muammolar tizimli bo'lsada, ularni hal etish esa turli darajadagi islohotlar orqali amalga oshirilishidadir.

Sohalar va tarmoqlarda kompleks rivojlanish maqsadlari zaruratini, mamlakatimizning mavjud rivojlanish yo'nalishlari va istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot maqsadlarini inobatga olgan holda "O'zbekiston – 2040" ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Shunga muvofiq, tadqiqotning avvalgi bosqichlarida olingan xulosalar asosida "O'zbekiston – 2040" ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining eng asosiy 7 ta strategik yo'nalishlarini belgilab olindi. Muallif fikriga ko'ra, konsepsiyasining asosiy strategik yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: raqamli iqtisodiyot; sanoatni modernizatsiya qilish; qishloq xo'jaligi transformatsiyasi; inson kapitalini rivojlantirish; hududiy barqarorlik va integratsiya; yashil iqtisodiyot; institutsional islohotlar (12-jadvalga qarang).

²⁰ Muallif ishlanmasi

12-jadval

“O‘zbekiston – 2040” ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi strategik yo‘nalishlar va ustuvorliklari²¹

№	Yo‘nalish nomi	Strategik maqsad	Asosiy islohot yo‘nalishlari
1	Raqamli iqtisodiyot	Innovatsion va texnologik raqobatbardoshlikni ta‘minlash	Moliyaviy, SI, Big Data, IoT, blokcheyn texnologiyalari
2	Sanoatni modernizatsiya qilish	Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish	Klasterlar, avtomatlashtirish, texnoparklar
3	Qishloq xo‘jaligi transformatsiyasi	Resurslarni tejovchi va raqamli texnologiyalarga o‘tish	Agro texnologiyalar, sun‘iy yo‘ldosh monitoringi, Agro-logistika
4	Inson kapitalini rivojlantirish	Yuksak salohiyatli va raqamli savodxonligi yuqori jamiyat shakllantirish	Ta‘limni raqamlashtirish, IT-ta‘lim, xalqaro dasturlar
5	Hududiy barqarorlik va integratsiya	Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta‘minlash	Smart-city, infratuzilma, transport-ekologik loyihalar
6	Yashil iqtisodiyot	Ekologik barqarorlik va iqlimga chidamli tizimlar ishlab chiqish	Qayta tiklanuvchi energiya, ekologik boshqaruv
7	Institutsional islohotlar	Samarali davlat boshqaruvini amalga oshirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish	E-hokimiyat, sud-huquq islohotlari, ochiq ma‘lumotlar

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2040” ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilab olindi (13-jadvalga qarang).

13-jadval

“O‘zbekiston – 2040” ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari²²

№	Yo‘nalish	2023-yildagi holat	2040-yildagi mo‘ljal	O‘sish sur‘ati (%)
1	Raqamli iqtisodiyot ulushi (YAIMda)	3.2%	20%	+525%
2	Sanoatdagi SI texnologiyalari ulushi	1-4%	40%	+900%
3	Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiya qamrovi	6%	70%	+1067%
4	Ta‘lim tizimida raqamlashtirish darajasi	25%	100%	+300%
5	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	10%	45%	+350%
6	Internetdan foydalanish darajasi (aholi %)	76%	99.5%	+31%
7	Inson kapitali indeksi (HCI)	0.55	0.75	+36%

“O‘zbekiston – 2040” ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish va ekologik barqarorlik yo‘nalishlarida keng ko‘lamli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. 13-jadvalda keltirilgandek, 2023-yildagi holat bilan solishtirganda, 2040-yilgacha

²¹ Muallif ishlanmasi

²² Muallif ishlanmasi

iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning umumiy ulushi 3,2 foizdan 20 foizgacha oshirilishi rejalashtirilmoqda, bu degani +525 foizlik yuqori o'sish demakdir. Bunda elektron savdo, yuqori, ilg'or texnologiyalar rivojlanishi, raqamli xizmatlar va platformalarning jadal o'sishi muhim rol o'ynaydi. 13-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sanoatda sun'iy intellekt texnologiyalarining ulushi 4 foizdan 40 foizgacha yetkazilishi ko'zda tutilgan bo'lib, +900 foizlik natijalarni taqdim etadi. Mazkur ijobiy natijalarga esa zamonaviy raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarini barqaror rivojlantirish, avtomatlashtirishni va robototexnikani keng joriy etishni yo'lga qo'yish orqali erishilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning qamrovi 6 foizdan 70 foizgacha oshib (+1067%), agrotexnologiyalar masalan, aqlli(smart) sug'orish, dronlar, geotexnologiyalar orqali resurslardan samarali foydalanish orqali natijalar ta'minlanadi. Ta'lim tizimida raqamlashtirish darajasi 25 foizdan 100 foizgacha ko'tariladi (+300%), bu orqali masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt yordamida individual o'qitish va raqamli kontentlar bazasini shakllantirish to'liq amalga oshiriladi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 10 foizdan 45 foizgacha yetadi va +350% lik o'sish ta'minlanadi. Ushbu yo'nalishdagi ijobiy o'zgarishlar ekologik xavfsizlik, energiya mustaqilligi va barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqlikni aks ettiradi. Aholining internetdan foydalanish darajasi 76 foizdan 99.5 foizgacha oshib (+31%), raqamli inklyuzivlik va axborot texnologiyalaridan ommaviy foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Shuningdek, inson kapitali indeksi 0.55 dan 0.75 gacha oshadi (+36%), natijada, sog'liqni saqlash, ta'lim sifati, bolalar o'sish va rivojlanishi va aholining bandlik darajalari barqaror yuksalishini anglatadi.

Tadqiqotlar natijasida Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha 2026–2040-yillarga mo'ljallangan Yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, quyidagi asosiy 14 ta yo'nalishlar belgilab olindi: hududiy boshqaruv, investitsiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya va yashil iqtisodiyot, eksport va tashqi iqtisodiy aloqalar, innovatsiyalar va startaplar, transport-logistika, tahliliy va monitoring tizimlari.

O'zbekistonda "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti"ni tashkil etish masalasi nafaqat dolzarb, balki tizimli islohotlar mohiyatining mantiqiy davomi sifatida ham ko'riladi. Ushbu departament mintaqaviy darajada barcha sohalarni qamrab oluvchi raqamli, tahliliy va strategik boshqaruv markaziga aylanishi lozim deb hisoblaymiz. Uning asosiy funksiyalariga hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, investitsion va innovatsion salohiyatni aniqlash va yo'naltirish, sektorlararo muvofilikni tashkil etish, tahlil va monitoring asosida asosiy samaradorlikko'rsatkichlari (KPI) tizimlarini yuritish, demografik axborot tizimi platformalari orqali raqamli nazorat o'rnatish, mahalliy byudjetlar va ijtimoiy xizmatlar muvofiqligini ta'minlash kiritilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, departament raqamli hukumat tamoyillarini hududiy bosqichda implementatsiya qilish, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar asosida qarorlar qabul

qilish, xalqaro standartlarga mos indikatorlar va baholash mexanizmlarini shakllantirishda asosiy institut sifatida ajralib turadi. Bu orqali nafaqat samaradorlik oshiriladi, balki xorijiy investorlarga, donor tashkilotlarga va fuqarolik jamiyatiga ochiqlik tamoyillari ta'minlanadi. Ayniqsa, "O'zbekiston-2030" strategik hujjatlarida belgilangan raqamli iqtisodiyot, yashil energetika, innovatsion sanoat, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, inson kapitali salohiyatini kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarning real va muvofiqlashtirilgan asosda amalga oshirilishi bevosita shunday departament faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Biz taklif etayotgan departamentni shakllantirish 12 bosqichda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda: 1.Konseptual asoslarni ishlab chiqish; 2.Normativ-huquqiy asoslarni shakllantirish; 3.Institutsional modelni loyihalash; 4.Tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish; 5.Moliyaviy va infratuzilma manbalarini aniqlash; 6.Kadrlar siyosatini ishlab chiqish; 7.Axborot tizimlarini yaratish va raqamlashtirish; 8.Hududlarda tajriba-sinov bosqichini o'tkazish; 9.Monitoring va baholash mexanizmlarini joriy qilish; 10.Hududiy filiallarni bosqichma-bosqich tashkil etish; 11.Davlat organlari va xususiy sektor bilan integratsiyani kuchaytirish.

"Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti"ni tashkil etish konsepsiyasining tashkiliy tuzilmasi jami 8 ta bo'limdan tarkib topishi ko'zda tutilgan. Quyida ularni birma-bir ko'rib chiqamiz:

Boshqaruv bo'limi – departamentning strategik va operativ boshqaruvi ushbu bo'lim zimmasiga yuklatiladi. Departament rahbari va uning ikki o'rinbosari departamentning barcha yo'nalishlari ustidan mamuriy, tashkiliy va moliyaviy nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, bo'lim har chorakda va yilda bir marotaba yuqori turuvchi organlarga hisobotlar taqdim etib beradi.

Iqtisodiy tahlil va strategik rejalashtirish bo'limi – mintaqaning o'rta va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqadi, real vaqtda makro va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladi, natijalar asosida tegishli sohalar uchun maqsadli yo'nalishlar belgilanadi.

Investitsiya va innovatsiyalar bo'limi – hududga investitsiya jalb qilish, investorlar uchun "yagona darcha" tamoyilida xizmatlar ko'rsatish, startaplar va innovatsion klasterlar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur bo'limning asosiy vazifalaridan hisoblanib, mahalliy hamda xalqaro hamkorlik shartnomalari aynan shu yerda ishlab chiqiladi.

Tarmoqaro integratsiya va kooperatsiya bo'limi – viloyatdagi sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va turizm sektorlarining o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, samarador resurslar taqsimotini nazorat qilish ushbu bo'lim orqali amalga oshiriladi.

Monitoring va baholash bo'limi – har bir loyiha uchun Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni belgilaydi, rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni solishtiradi, departament faoliyatining samaradorligini baholash, ta'sir tahlilini yuritish ham ushbu bo'limda olib boriladi.

Raqamli infratuzilma va ma'lumotlar markazi – Geografik axborot tizimi, elektron boshqaruv, raqamli hujjatlar aylanishi, sun'iy intellekt asosida prognozlash kabi funksiyalarni amalga oshiradi, real vaqtda tahliliy ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va yangilab boradi.

Axborot va tashqi aloqalar bo‘limi – fuqarolar bilan kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, PR va jamoatchilik monitoringini yuritadi, donorlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni boshqaradi, departamentning ochiqlik siyosatini amalga oshiradi.

Umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limi – kadrlar siyosati, moliyaviy boshqaruv, yuridik maslahatlar, ichki tartib va ofis boshqaruvini amalga oshiradi, departamentning muammolarsiz faoliyat yuritishi bevosita shu bo‘limga bog‘liq.

Faoliyatning yillik bazaviy hisobdagi xarajatlari 14-jadvalda keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra jami bir yillik xarajat hajmi 12 mlrd so‘mni tashkil etadi (14-jadvalga qarang).

14-jadval

“Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti”ning xarajatlar (yillik bazaviy hisob)²³

Xarajatlar turlari	Yillik miqdori (mlrd so‘m)
Maosh va xizmat haqlari (30 xodim)	6,0 mlrd so‘m
Dasturiy ta'minot, raqamli tizimlar	2,5 mlrd so‘m
Ofis ijarasi, texnik jihozlar	1,8 mlrd so‘m
Xalqaro hamkorlik va safarlar	1,2 mlrd so‘m
Tashviqot va hisobot ishlari	0,5 mlrd so‘m
Jami yillik	12,0 mlrd so‘m

Departament faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida yillik 1,5-2 % atrofida mablag‘lar tejalishi kutilmoqda. Eng minimal 0,5 lik ko‘rsatkichlar qayd etilgan taqdirda 2025-yilda iqtisod qilinadigan mablag‘ miqdorini hisolab chiqildi. Unga ko‘ra davlat byudjeti xarajatlari 1 452,09 mlrd so‘m, davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari 585,96 mlrd so‘m, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari 101,47 mlrd so‘m, byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari 168,76 mlrd so‘m, tashqi qarz hisobidan davlat dasturlari xarajatlari 94,20 mlrd so‘m, davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlar 271,81 mlrd so‘m va davlat byudjetiga transfertlar 52,40 milliard so‘mga tejalishiga erishish mumkin.

Faoliyati yo‘lga qo‘yilishini taklif qilayotgan “Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti” O‘zbekistonda 2026-yil 1-yanvardan boshlab joriy etiladigan davlat organlari faolligining milliy reytingi asosida o‘z faoliyatini muvofiqlashtirib borishi lozim deb hisoblaymiz

XULOSA

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

1.Tizimli transformatsiya, innovatsion-inklyuziv yondashuv va inson salohiyatiga asoslangan barqaror rivojlanish modellarini umumlashtirgan yangi,

²³ Muallif ishlanmasi

kompleks hamda ilmiy asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'rifini ishlab chiqdik. Shunday qilib, bizning yondashuvimizga ko'ra, **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish** – bu inson salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, barcha uchun teng imkoniyatlar va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlab berish vositasida mavjud resurslardan oqilona, samarali va ekologik mas'uliyatli yondashuv asosida foydalanish, yuqori innovatsion va texnologik yechimlar orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish hamda ijtimoiy institutlar, shuningdek, tizimlararo uyg'unlikni shakllantirish yo'li bilan barqaror, tarkibiy va sifat jihatdan takomillashib boruvchi dinamik rivojlanish jarayonidir.

2. Tadqiqotlar natijasida mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari o'rganildi. Muallif fikriga ko'ra, mavjud modellarni 8 ga bo'lishimiz mumkin: 1) markazlashgan (top-down) model; 2) pastdan yuqoriga (bottom-up) model; 3) klaster modeli; 4) barqaror rivojlanish modeli; 5) hududiy innovatsion tizim modeli; 6) inklyuziv rivojlanish modeli; 7) mintaqaviy ixtisoslashuv modeli; 8) raqamli hudud modeli.

3. Hozirgi iqtisodiy islohotlar bosqichida O'zbekistonning davlat rejalashtirish tizimi bozor mexanizmlari bilan muvofiqlashtirilgan strategik rejalashtirishga asoslanishi lozim sanalib, bu modelda davlat yo'nalish belgilovchi asosiy vazifasini bajarsada, sektorlar va hududlar turli xil tashabbuslar doirasida mustaqil harakat qilishi maqsadga muvofiq.

4. Ijtimoiy barqarorlik va inklyuzivlik siyosatini kuchaytirish, davlat siyosatini ijtimoiy guruhlarining teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlovchi mexanizmlarga asoslanishini rejalashtirish, bunda ijtimoiy himoya tizimining maqsadli va samarali faoliyati, oila siyosati va ko'p bolali oilalarni alohida qo'llab-quvvatlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va keksa yoshdagi kishilarni integratsiyalashgan tizimlar vositasida qo'llab-quvvatlash.

5. Davlat va xususiy sektor o'rtasida barqaror hamkorlikni chuqurlashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmalarni rivojlantirish, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion va texnologik korxonalarni rivojlantirishga xususiy kapitalni kengroq jalb etish lozim.

6. Turli sohalarining har biri uchun alohida-alohida transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish zarurati inobatga olinib, mamlakatimizda 2025-2040-yillarda raqamli texnologiyalarni sohalar kesimida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qildik va joriy etilishi lozim bo'lgan texnologiyalar hamda kutilmalar tavsiflandi. Bunda asosiy e'tibor quyidagi umumiy 20 ta sohaga qaratildi: qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va logistika, energetika, ijtimoiy xizmatlar, turizm, ekologiya, bank-moliya, savdo va chakana bozor, davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, bandlik va mehnat bozori, madaniyat, qurilish, ichki ishlar va xavfsizlik, adliya, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot, aholi fikrini monitoring qilish, OAV va boshqa axborot vositalari.

7. Tadqiqotlarimiz natijasida "Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi" (MRTI) ni ishlab chiqdik. Bizning muallif fikriga ko'ra, MRTI – bu hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ko'rsatadigan ta'siri va hududlararo raqamli tafovutlarni baholovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimidir. Shunday qilib, O'zbekiston hududlari

bo'yicha raqamli transformatsiyaning hozirgi holatini ko'rsatib beruvchi Mintaqaviy Raqamli Transformatsiya Indeksi (MRTI) natijalariga ko'ra (11-jadval), Toshkent shahri umumiy 86.20 ball bilan juda yuqori darajadagi raqamli rivojlanish ko'rsatkichlariga ega hudud ekanligini aniqladik. Bunday ijobiy natijaga internet infratuzilmasining keng qamrovi, elektron to'lovlar tizimining rivojlanganligi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi va undan foydalanish hamda aholining IT savodxonligi darajasining yuqoriligini sabab sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent viloyati 76.20 ball bilan yuqori raqamli rivojlanish ko'rsatkichiga ega hudud sifatida baholandi.

8. "O'zbekiston – 2040" ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining asosiy strategik yo'nalishlarini ishlab chiqildi. Muallif fikriga ko'ra, konsepsiyasining asosiy strategik yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim: raqamli iqtisodiyot; sanoatni modernizatsiya qilish; qishloq xo'jaligi transformatsiyasi; inson kapitalini rivojlantirish; hududiy barqarorlik va integratsiya; yashil iqtisodiyot; institutsional islohotlar. "O'zbekiston – 2040" konsepsiyasini 3 bosqichda: 2024–2026, 2027–2033 va 2034–2040-yillarda amalga oshirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

9. O'zbekistonda "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni muvofiqlashtirish departamenti"ni tashkil etish masalasi nafaqat dolzarb, balki tizimli islohotlar mohiyatining mantiqiy davomi sifatida ham ko'riladi. Ushbu departament mintaqaviy darajada barcha sohalarini qamrab oluvchi raqamli, tahliliy va strategik boshqaruv markaziga aylanishi lozim deb hisoblaymiz. Uning asosiy funksiyalariga hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, investitsion va innovatsion salohiyatni aniqlash va yo'naltirish, sektorlararo muvofilikni tashkil etish, tahlil va monitoring asosida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimlarini yuritish, demografik axborot tizimi platformalari orqali raqamli nazorat o'rnatish, mahalliy byudjetlar va ijtimoiy xizmatlar muvofiqligini ta'minlash kiritilishi maqsadga muvofiq.

10. Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholashda aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi o'zgarishiga viloyatda ish bilan band bo'lganlar va ishsizlar soni, sanoat ishlab chiqarish hajmi, tadbirkorlik subyektlari soni va unda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ta'sirini aniqlash asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari asosida Buxoro viloyati aholisi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 2,194 barobarga oshishi 2030-yilda viloyat aholisiga jami xizmatlar ko'rsatish hajmini 3,10 barobarga oshirish diapazonga teng bo'lishi kutilmoqda.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/27.09.2024. I.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ШАДИЕВ АЛИШЕР ХУДОЙНАЗАРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННОГО МЕХАНИЗМА
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА**

08.00.12 – Региональная экономика

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ЭКОНОМИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2025.3.PhD/Iqt5844 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Явмутов Дилшод Шойимардонкулович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты	Рузметов Бахтияр доктор экономических наук, профессор Низомов Аслиддин Бадриддинович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация	Каршинский государственный технический университет

Защита диссертации состоится в 11:00 часов декабря 2025 года на заседании Разового научного совета при Научном совете DSc.03/27.09.2024.1.72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11, Тел: (99 865) 221-26-46, факс.: (99 862) 224-57-00, e-mail: ilmiy_innovatsiya@buxdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 803). (Адрес: г. Бухара, ул. М. Икбол, 11, Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@mail.uz

Автореферат диссертации разослан «13» декабря 2025 года

(реестр протокола рассылки № 35 от «13» декабря 2025 года)



О.Х.Хамидов
Председатель Разового научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Н.С.Ибрагимов
Секретарь Разового научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н. (DSc), профессор

Б.П.Навроз-Зода
Председатель Разового научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в 2025 году ожидается замедление темпов экономического роста почти в 60% развивающихся стран и составляет в среднем 3,8%, а в 2026-2027 годах прогнозируется небольшой рост и достижение 3,9%. По данным Всемирного банка, хотя и более чем на один процент ниже среднего показателя 2010 года, ожидается, что экономика стран с низким уровнем дохода вырастет на 5,3 процента в 2025 году, что на 0,4 процентных пункта ниже прогноза на начало 2025 года. Рост тарифов и напряженность рынков труда оказывают давление на глобальную инфляцию, которая, как ожидается, составит в среднем около 2,9% в 2025 году, превысив допандемический уровень¹. Повышение уровня жизни населения путем ускорения реформ, направленных на социально-экономическое развитие регионов, является одним из актуальных вопросов.

В мире проводится ряд научных исследований по совершенствованию организационных механизмов социально-экономического развития региона. В частности, структура и функционирование урбанистической социально-экономической системы, а также последствия различных сценариев экосистемных изменений, основанных на рекомбинации и концептуализации городских узлов, более эффективное развитие регионов за счет внедрения цифровых технологий управления, активизация драйверов экономического роста через кластеры и региональные сети, повышение независимости региональных бюджетов, интеграция образования, здравоохранения и социальной инфраструктуры в стратегии регионального развития являются приоритетными направлениями.

В Указе Президента Республики Узбекистан №УП-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030» от 11 сентября 2023 года определены «организация системы образования, здравоохранения и социальной защиты, полностью отвечающей требованиям населения и международным стандартам, обучение 2 миллионов граждан профессиям, предпринимательским навыкам и иностранным языкам, строительство в регионах жилья на 1 миллион квартир, увеличение количества массивов «Новый Узбекистан» до 100 и производство 850 видов инновационной продукции в «драйверных» направлениях отраслей экономики, увеличение объема экономики в 2 раза и вхождение в число «государств с доходом выше среднего» к 2030 году, доведение объема валового внутреннего продукта до 160 миллиардов долларов и доходов на душу населения до 4 тысяч долларов, реализация среднесрочной стратегии управления государственным долгом, чтобы соотношение государственного долга к ВВП не превышало 50 процентов»². В процессе достижения этих результатов, исходя из имеющегося потенциала регионов, необходимо определить возможности эффективного использования цифровых технологий на основе определения основных тенденций социально-экономического развития, принять меры, направленные на разработку и внедрение совершенно

¹ <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/06/10/global-economic-prospects-june-2025-press-release>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. № УП-158

новой системы институциональных подходов, а также проводить научно-практические исследования по совершенствованию организационного механизма социально-экономического развития региона.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-32 «О мерах по строительству массивов «Новый Узбекистан» и обеспечению социально-экономического развития регионов» от 12 сентября 2021 года, № УП-5644 «О первоочередных мерах по повышению ответственности Кабинета Министров Республики Узбекистан за эффективность реализации стратегических задач социально-экономического развития страны» от 28 января 2019 года, Постановлениях №ПП-467 «О мерах по эффективной организации деятельности по стратегическому анализу и исследованиям в сферах социального, политического и экономического развития страны» от 31 декабря 2024 года, № ПП-5223 «О дополнительных мерах по повышению качества и роли экономических исследований в социально-экономическом развитии» от 13 августа 2021 года, № ПП-4702 «О внедрении системы рейтинговой оценки социально-экономического развития регионов» от 1 мая 2021 года, № ПП-4102 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности секторов по комплексному социально-экономическому развитию регионов», № ПП-4473 «О дополнительных мерах по повышению эффективности общественного контроля за реформами в социально-экономической сфере в стране, а также активности граждан в демократических преобразованиях», № ПП-4471 «О мерах по повышению качества и роли экономических исследований в социально-экономическом развитии» от 3 октября 2019 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 215 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий и дальнейшему повышению уровня жизни населения Бухарской области в 2022-2026 годах» от 27 апреля 2022 года, № 536 «О мерах по внедрению системы оценки эффективности деятельности секторов по комплексному социально-экономическому развитию регионов» от 23 августа 2021 года, а также в других нормативно-правовых документах относительно данной сферы деятельности.

